



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

6 (56) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (56)

2023

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

ИЮНЬ

Received: 20.05.2023, accepted: 30.05.2023, published: 15.06.2023.

UDK 378.14

O‘ZBEKISTONDA AHOLIGA KO‘RSATILADIGAN BIRLAMCHI TIBBIY– SANITARIYA YORDAMINING RIVOJLANISHI

M.M. Mahmudova <https://orcid.org/0009-0008-2084-5314>

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali O‘zbekiston, Xorazm viloyati, Urganch shahri, Al-Xorazmiy ko‘chasi 28-uy Tel: +998 (62) 224-84-84
E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Rezyume*

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasining birlamchi bo‘g‘ini hisoblangan qishloq vrachlik punktlarini tashkil etish, ularni aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, mutaxassislarini umumiy amaliyot shifokori va patronaj hamshiralarga qayta tayyorlash, malakasini oshirish va ijtimoiy himoya qilish ishlariga jiddiy e‘tibor qaratilgan.

Maqsadi: Respublikada kishloq tibbiyotini isloh qilish jarayonini chuqurroq o‘rganish.

Qo‘llanilgan tadqiqot usullari: davriylik, statistik va qiyosiy tahlil, analiz va sintez.

Kalit so‘zlar: qishloq vrachlik punkti, umumiy amaliyot shifokori, patronaj hamshira, ko‘p tarmoqli tuman shifoxonasi, “Salomatlik” loyihasi, laboratoriya, shoshilinch yordam tayanch punkti va h.

РАЗВИТИЕ ПЕРВИЧНОЙ МЕДИКО-САНИТАРНОЙ ПОМОЩИ ЖИТЕЛЯМ УЗБЕКИСТАНА

M.M. Махмудова <https://orcid.org/0009-0008-2084-5314>

Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии Узбекистан, Хорезмская область, город Ургенч, улица Ал-Хорезми №28 Тел: +998 (62) 224-84-84
E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Резюме*

В условиях независимости основным звеном оказания медико-санитарной помощи сельским жителям Узбекистана являются врачебные пункты. Для них были построены новые здания, закупались оборудования, готовились врачи общей практики и патронажные сестры. Государство проявило заботу и внимание социальным нуждам сельских медицинских работников.

Цель: Изучение и освещение процесса перестройки сельского здравоохранения в Узбекистане.

Методы исследования: хронологические, статистические, сравнительный анализ и синтез, сопоставление и т. д.

Ключевые слова: сельские врачебные пункты, врачи общей практики, патронажные медицинские сестры, многопрофильные районные больницы, проект «Здоровье», лаборатория, опорный пункт экстренной помощи и др.

DEVELOPMENT OF PRIMARY HEALTH CARE TO RESIDENTS OF UZBEKISTAN

M.M. Mahmudova <https://orcid.org/0009-0008-2084-5314>

Urgench branch of the Tashkent Medical Academy Uzbekistan, Khorezm region, Urgench city, Al-Khorezmi street No. 28 Tel: +998 (62) 224-84-84
E-mail: info@urgfiltma.uz

✓ *Resume*

In the conditions of independence the main link of rendering the medical and sanitary help to villagers of Uzbekistan is medical points. For them new buildings were built, were bought the equipment, general practitioners and patronage sisters prepared. The state showed care and attention to social needs of rural health workers.

Purpose: Studying and publicizing of process of reorganization of rural health care in Uzbekistan.

Research methods: chronological, statistical, comparative analysis and synthesis, comparison, etc.

Keywords: rural medical points, general practitioners, patronage nurses, versatile regional hospitals, Health project, laboratory, strong point of the emergency help, etc.

Dolzarbligi

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyat hayotining barcha jabhalari qatorida sogʻliqni saqlash tizimida ham bir qator muammolar saqlanib qolayotganligi maʼlum boʻldi. Birinchi navbatda sobiq tizim tomonidan kafolatlangan, teng, bepul. sifatli va oʻz vaqtida etkazib beriladi, deyilgan tibbiy xizmat darajasi juda pasayib ketgandi. Ayniqsa fuqarolarning aksariyati istiqomat qiladigan qishloqlarda mavjud feldsher-akusherlik punktlari (FAP) va uchastka kasalxonalarini faoliyati talab darajasidan ancha past edi. Ularda, asosan oʻrta malakali xamshiralar va feldsherlar ishlardi. Mavjud shifokorlar esa yillar davomida oʻz malakasini oshirmasdilar.

Jahon tajribasi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sogʻliqni saqlash tizimining asosi ekanligini tasdiqladi. SHuni hisbga olgan holda ambulatoriya, poliklinika, sanitariya muassasalarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash va malakali shifokorlar bilan taʼminlash ishlariga ustuvor yoʻnalish deb qarala boshlandi. Aholiga oʻz uyida, ishlab chiqarish va oʻquv muassasalarida harakatdagi shifokorlar brigadalari tomonidan yordam koʻrsatish doirasi kengaydi. 1991 yil oxirlarida birlamchi tibbiy xizmat xodimlari faolligini oshirish maqsadida, ularning ish haqlari koʻpaytirildi.

1996 yil 21 mayda Respublika Vazirlar Mahkamasi “Oʻzbekiston Respublikasining 2000 yilgacha boʻlgan davrda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturi” nomli 182-sonli qaror qabul qildi. Qarorda qishloq aholisining turmushini yaxshilash va salomatligini mustahkamlash orqali mavjud mehnat zahiralari qishloq iqtisodiy samarali foydalanish koʻzlangandi. Bu esa qishloqlarda mavjud tibbiyot muassasalarini tubdan qayta qurish va kadrlar bilan taʼminlash masalasini tezkor hal qilishni talab qilardi. Mavjud FAP va qishloq kasalxonalarini negizida 805 ta qishloq vrachlik punktlari (QVP) tashkil etish rejalashtirildi. Ularning 80 tasi 1996 yildayoq va 161 tasi 1997 yildan ishlay boshlashi kerak edi. Dasturda aholisi va qishloqlarning soniga qarab Andijon va Samarqand viloyatlarida 100 ta, boshqa hududlarda esa — 40 tadan 70 tagacha QVPlar ochilishi moʻljallangandi [1].

Vaqt kelib, QVPlar uchun namunaviy loyihalar asosida maxsus binolar qurila boshlandi. Yangi ochilayotgan tibbiyot muassasalari zamonaviy texnika va jihozlarni hamda malakali shifokorlar bilan taʼminlanadigan boʻldi. Imkoniyat darajasida QVPlarga transport vositalari ham ajratildi.

1998 yildan butun Respublika sogʻliqni saqlash tizimi isloh qilina boshlangan davrda aholiga birlamchi tibbiy yordam koʻrsatadigan QVPlarning moddiy bazasini yanada mustahkamlashga eʼtibor qaratildi. Ular davolash va profilaktika tadbirlarini amalga oshirish bilan bir vaqtda odamlarni sogʻlom turmush tarziga oʻrgatishlari, kasalliklarni tezroq aniqlash va xavfli asoratlarini kamaytirishlari, tashhish koʻyishning amaliyotda tasdiqlangan yangi samarali usullaridan foydalanishlari zarur edi [2].

Islohotlar davomida birlamchi tibbiy xizmat muassasalarini moliyalashtirish tartibi oʻzgartirildi. Dastlab tajriba tarzida Fargʻona viloyatida boshlangan yangi moliyalashtirishda xizmat koʻrsatayotgan aholi soni, muassasaning asbob-uskunalar bilan taʼminlanganlik darajasi va xodimlar soniga eʼtibor berildi. Endilikda muassasa mablagʻlaridan mustaqil foydalanish huquqini olgan rahbarlar zarur asbob-uskunalar xarid qilish, faol xodimlarni moddiy ragʻbatlantirish imkoniyatiga edilar.

Qishloq tibbiyotini qayta tashkil qilish ishiga respublikadagi oliy oʻquv yurtlari, yirik klinika va ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlar yordam bera boshladi. Ular koʻmagida qisqa muddatlarda 264 ta namunaviy modul QVP ochildi va xodimlarni qayta tayyorlashga kirishildi [2].

Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlashni tizimini isloh qilish boshlangan davrda chet el sarmoyadorlari yordam qoʻlini choʻzdi. AQSH xalqaro aloqalarni rivojlantirish agentligi (YUSAID) tomonidan “Salomatlik” loyihasi taklif qilindi. 1998 yil noyabrda Oʻzbekiston bilan AQSHning Butunjahon

qayta qurish va rivojlantirish banki (VBR) bilan tuzilgan shartnomaga asosan “Salomatlik–1” loyihasi amalga oshirila boshlandi. Loyiha dastlab Farg‘ona, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarini qamrab olgan bo‘lsa, 2004 yilda unga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi qishloq vrachlik punktlari ham qo‘shildi.

Etarli mablag‘larning mavjudligi va tajribaning ortib borayotganligi natijasida qishloqlarda vrachlik punktlari uchun yangi binolarni qurishga katta e‘tibor berildi. Agar 2001-2006 yillarda Respublikada 2800 ta QVP ochish rejalashtirilgan bo‘lsa, ularning 920 tasi yangi qurilgan binoda va 191 tasi ilgari mavjud, ammo qayta ta‘mirlangan muassasalar negizida ishlashi kerak edi [3]. Yangi binolarni tibbiy texnika bilan jihozlashga ham katta e‘tibor berila boshlandi. Natijada qishloqlarda shinam binolarning qurilishi, ularning zamonaviy asboblardan jihozlanishi, tibbiyot xodimlarining malakasi oshirishi aholining markazdagi muassasalarga murojaatlari keskin kamayishiga olib keldi.

2005 yildan amalga oshirilishi boshlangan “Salomatlik–2” loyihasi 8 viloyatni qamrab olishi va unga 40 mln. dollar hajmida mablag‘ sarflash mo‘ljallangandi [4]. 2009 yilga kelib. Respublikada 3133 QVP tashkil qilingan bo‘lib, ular 15,6 mln. aholiga xizmat ko‘rsatardi [5]. Keyingi 2 yilda 2389 QVPlar bilan bir qatorda 29 ta shahar poliklinikalariga tibbiy jihozlar harid qilish uchun 12,7 mln. dollar mablag‘ sarflandi. Qishloq aholisiga tez yordam uchun tuman tibbiyot birlashmalariga 444 ta avtomobillar ajratildi [6].

1998-2010 yillar oralig‘ida qishloq davolash va profilaktika muassasalari tarkibida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tuman markaziy (163 va 159) va qishloq uchastka kasalxonalarini (32 va 35) soni deyarlik o‘zgarishsiz qolgan bir vaqtda, feldsher-akusherlik punktlari (4474 va 570) soni keskin kamaydi. 1998 yilda respublikada 1113 qishloq vrachlik ambulatoriyasi ishlab turgan bo‘lsa, 2007 yilda ular umuman tugatildi. O‘rnida esa 3182 qishloq vrachlik punktlari tashkil etildi [7]. QVPlarning 66 % mavjud binolarni qayta ta‘mirlash va 34% yangi qurilish evaziga ishga tushirildi [8]. Endilikda qishloq joylarida ham aholi shahardagidek tibbiy xizmatni oladigan sharoit yaratildi.

“Salomatlik–2” loyihasi asosida respublikadagi QVP xodimlarining malakasini oshirish ishlari yo‘lga qo‘yila boshlandi. Ayniqsa, onalar va bolalar salomatligiga mas‘ul tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasi oshirilishi natijasida tug‘ish yoshidagi ayollarning aksariyati va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning barchasi nazorat ostiga olindi. Onalar va bolalar o‘limining keskin kamayishi esa O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining yangi bosqichga ko‘tarilganining yaqqol tasdig‘i edi.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishi —mutaxassislar, birinchi navbatda umumiy amaliyot shifokorlari (UASH) tayyorlashga qaratilgandi. Mazkur vazifa ikki yo‘l bilan amalga oshirildi: oliy o‘quv yurtlarida yosh malakali UASH tayyorlash va mavjud kadrlarni maxsus kurslarida qayta o‘qitish. 1999-2010 yillarda “Salomatlik–1 va 2” loyihalari doirasida 10-oylik kurslarda 5126 mutaxassis qayta tayyorlandi. Ular orasida 4175 nafar QVP, 692 nafar shahar tajriba poliklinikalari shifokorlari va 259 nafar UASH tayyorlayotgan tibbiyot institutlarining o‘qituvchilari bor edi [9].

Kadrlarni uzluksiz qayta tayyorlash jarayonida, 2010 yilda tizimning 2054 rahbar xodimlari o‘qitilgan bo‘lib, ular o‘z navbatida joylarda tashkil qilgan 13 viloyat va 159 tuman o‘quv markazlarida o‘tkazilgan 1920 seminarlarda 28 ming 800 vrachlarni qayta tayyorladilar¹. [9]. Qayta tayyorlash ishlari birlamchi tibbiy xizmat muassasalarining o‘rta malakali xodimlarni ham qamrab oldi. QVPlarning ko‘plab laboratoriya jihozlari olayotgani va ularni ishlatish zaruriyati Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti va viloyatlarda laborantlarni o‘qitish markazlari tashkil etishga turtki berdi. Natijada dastlab 66 nafar viloyat darajasidagi klinik laboratoriya mutaxassislari qayta tayyorlandi. Ular esa o‘z navbatida 652 ta tuman, 4533 QVP va shahar poliklinikalari laborantlarini o‘qitdilar [10].

2010 yil 16 sentyabrda Respublika sog‘liqni saqlash vazirligida “O‘zbekistonda sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘ini 10 yil oralig‘ida” mavzusida anjuman o‘tkazildi. Anjumanda xalqaro tashkilotlar va respublika vakillaridan 190 kishi ishtirok etdi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash vaziri, professor A.V. Alimov amalga oshirilgan tadbirlar va istiqboldagi rejalar haqida gapirarkan: “Erishilgan yutuqlarning biri — birlamchi tibbiy xizmat tizimida umumiy amaliyot shifokorlari ishlayotgan qishloq vrachlik punktlari va ularning asosida oilaviy poliklinikalar tashkil etilganidir. Bugungi kunda respublikada yangi turdagi 4199 ta ambulatoriya-poliklinikalar faoliyat ko‘rsatayotgan

bo'lsa, ularning 3173 tasi qishloq vrachlik punktlaridir" dedi [11].

2011 yildan "Salomatlik-3" loyihasi amalga oshirila boshlandi va u sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgandi. Buning uchun esa tibbiy xizmatning dastlabki bosqichi hisoblangan qishloq vrachlik punktlari, tuman tibbiyot birlashmalari, shahar poliklinikalarining aholiga ko'rsatayotgan xizmati doirasini kengaytirish va sifatini oshirish, ayrim yuqumli kasalliklarning o'sishiga qarshi tadbirlarni kuchaytirish zarur edi. Loyiha doirasida 157 ta tuman tibbiyot birlashmalari va 70 ta oilaviy poliklinikalarni yangi jihozlar bilan ta'minlash, tibbiyot xodimlarining yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tajribasini o'zlashtirishga ko'maklashish ko'zlangandi.

O'zbekistonning qishloq infratuzilmasida muhim o'rin egallagan vrachlik punktlarini tashkil qilish va ular faoliyatini takomillashtirish ishlariga barcha mintaqlarda katta e'tibor berildi. "Bizning viloyatimizda 293 ta QVP faoliyat ko'rsatayapti,— dedi Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i SH. Xusanboev. — QVPlarda tibbiy xizmatning sifatiga, moddiy-texnika bazani mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda. Keyingi yillarda 61 ta yangi QVP binolari qurildi va 232 tasining mavjud binolari qayta ta'mirlandi. "Salomatlik-1 va 2" loyihalari yordamida barcha QVPlar tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Mutaxassislarni qayta tayyorlash natijasida QVPlarni vrachlar bilan ta'minlanish darajasi Sox tumanida 63,8 % dan 78,2 foizga, Tashloq tumanida — 53,7 % dan 89,9, Farg'ona tumanida — 58,0 % dan 85,4 foizga ko'tarildi" [12].

Ekologik halokat hududi hisoblangan Qoraqalpoqiston Respublikasi aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish alohida nazorat markazida turardi. Ichimlik suvining sifati pastligi hudud ahlining o'tkir oshqozon-ichak va boshqa yuqumli kasalliklar bilan og'rishi — O'zbekistonning o'rtacha ko'rsatkichlaridan 11,2 foiz yuqori edi. Agar respublikada har 100 ming aholiga tuberkulyoz kasalligi bilan og'rish darajasi 67,5 kishi bo'lsa, Qoraqalpoqistonda ushbu ko'rsatkich 2 marta yuqori bo'lib, 135,5 kishiga to'g'ri kelardi. Tadqiqotlarda ayollar orasida anemiya, rak, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yarasi kabi havfli kasalliklarning ko'payib borayotganligini qayd qilindi [13].

2010 yilda Qoraqalpoqistondagi 241 tibbiyot muassasalari, jumladan 183 ta QVPlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. "Salomatlik-1" va "Onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash" loyihalari asosida 54 QVPlarga Osiyo taraqqiyot bankining 2 mlrd. 160 mln. so'mlik mablag'lari evaziga jihozlar keltirildi. Orololdi hududida bu davrda 3600 oliy va 14 ming nafar o'rta malakali shifokorlar xalqqa xizmat qilardi [14].

Qashqadaryo viloyatida 2010 yilda 258 ta QVP ishlayotgan bo'lib, ularning 107 tasi "Salomatlik-2" loyihasi mablag'lari asosida yangi qurilgan va jihozlangan imoratlarda faoliyat ko'rsatayotgandi. SHu bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat va homiylarning mablag'lari evaziga yana 39 ta QVPlar binolarida qayta ta'mirlash ishlari olib borilmoqda edi [15].

Qo'shni Surxondaryo viloyatida ham "Salomatlik-2" loyihasi asosida 242 ta QVPlar 2 milliard so'mlik zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangandi. Ular orasida EKG, FEK, avtoklav, sentrofuga kabi asboblari bor edi. Tog'li va cho'l hududlarda joylagan tibbiyot muassasalari uchun 7 ta «UAZ» va 6 ta «DAMAS» avtomobillari ajratilgandi. Viloyatdagi qishloq tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish maqsadida tumanlarda o'quv xonalari tashkil etilgandi. Xodimlarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida 10 uy-joylarni qurish boshlandi. Denov tumandagi «Jartepa», «Ibn Sino» i «YAngibog» QVP vrachlari hovli to'ylarini o'tkazdilar.

Viloyatda keng tarqalgan yana bir tashabbus — QVPlarni dori vositalari va shoshilinch laboratoriyalar tashhisi uchun reaktiv moddalar bilan ta'minlash bo'ldi. «Surxondoridarmon» mas'uliyati cheklangan jamiyat 31 QVPda apteka va 152 tasida fitobarlar ochdi hamda ularni shifobaxsh g'iyohlar bilan uzluksiz ta'minlay boshladi [16].

Tibbiyot xodimlarining kasbiy bayram munosabati bilan 2011 yilning dekabrda Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida o'tkazilgan majlisda Respublika sog'liqni saqlash vaziri A.I. Ikramov "Eng namunaviy QVP" ko'rik-tanlovida Sirdaryo viloyatining Mirzaobod tumanidagi "Navro'z" jamoasi g'olib chiqqanligi va u "DAMAS" avtomobili bilan taqdirlanganini qayd qildi. «Bizning punkt 3000 nafar qishloq aholisiga xizmat qiladi, — dedi QVP bosh shifokori G'ofur Abdurahimov. — Aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishga zarur barcha sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy tashhis qo'yin uchun bioximik reaktiv va apparatlarning mavjudligi kasallik haqida aniq ma'lumotlarni olish va bemorni tezroq davolashga imkon beradi" [17].

2013 yilda ko'rik-tanlovda Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi "Jambul" QVP g'olib deb topildi va unga ham «DAMAS» avtomobili ajratildi. "Bizning "Salomatlik" loyihasi asosida jihozlangan

punktimizda tibbiy-profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur sharotlar mavjud,— dedi QVP bosh shifokori Lola Kurbonova. — Vrachlar va patronaj xamshiralari oilalarga borib bemorlarni aniqlash vaqtida kasalliklarning oldini olish, sogʻlom turmush tarzi qoidalari haqida suhbatlar olib boradilar” [18].

2015 yil 26-27 noyabr kunlari Tashkentda “Sogʻliqni saqlashning birlamchi boʻgʻinida tibbiy xizmatning samaradorligini oshirish” mavzusida ilmiy-anjuman oʻtkazildi. Respublika sogʻliqni saqlash vazirining birinchi oʻrinbosari Asilbek Xudoyorov oʻz soʻzida qishloq vrachlar punktiga aholining ishonchi ortib borayotgani, soʻralganlarning 93 foizi koʻrsatilayotgan xizmatning sifatidan qoniqish bildirganlarini taʼkidladi. QVPlar tajribasida shaharlardagi birlamchi yordam moduli ham oʻzgardi. Keyingi yillarda tashkil qilingan 173 oilaviy poliklinikalarda umumiy amaliyot vrachlari ishlay boshladi [19].

2010–2016 yillarga oid statistik maʼlumotlar darak berishicha respublikadagi QVPlar soni 3206 tadan 2995 taga kamaygan. Agar ular sonining ortishi va kamayishiga eʼtibor qaratsak quyidagi vaziyatni koʻramiz: 2010 yilda 3206 QVP mavjud boʻlsa, 2011 yilda — 3219, 2012 yilda — 3211, 2013 yilda — 3219, 2014 yilda — 3000, 2015 yilda — 2995 va nihoyat 2016 yilda — 2995.² [20]. Koʻrsatkichlarning oʻsib va pasayib turishiga asosiy sabab, ularning dastlabki vaqtda etarlicha tayyor boʻlmagan binolarda shoshilinch ravishda ochilganligi va hudud aholisining soni koʻp yoki kamligi edi. 2014 yildan boshlab ayrim QVPlar oʻz faoliyatini oʻzgartirib, asosan oilaviy poliklinikalar shaklida faoliyat yurita boshladi.

2016 yilda respublikada mavjud QVPlar 20 mln. aholiga xizmat qilardi. SHu davr oraligʻida murojaat qilayotganlar soni 74 mln. 598 mingdan 78 mln. 666 ming kishiga ortdi [20]. QVPlarning aksariyati Butunjahon taraqqiyot bankining kreditlari yordamida profilaktika va davolash uchun zarur tibbiy anjomlar bilan taʼminlandi. Tuman markaziy kasalxonalarida bemorlarni chuqur tekshirish uchun qoʻshimcha laboratoriyalar ishlab turardi. Barcha viloyatlarda tashkil etilgan tashhis markazlari aholini tibbiy koʻrikdan oʻtkazish va samarali davolash ishlariga sezilarli yordam bera boshladi.

1996-2005 yillarda QVP vrachlari soni 25% koʻpaydi. Ular orasida umumiy amaliyot shifokorlari hissasi 2002 yildagi 4,6% dan 2010 yilda 9,7% ga ortdi. Oʻrta maxsus maʼlumotli xodimlarning ulushi ham 96,8 foizdan 99,1 foyizga koʻtarildi. Ammo bunday ijobiy natijalar ham tibbiyot xodimlarining viloyatlar, shahar va tumanlar kesimidagi taʼminlanganlik darajasidagi farqni tugata olmadi. Respublikada eng past koʻrsatkichlar Jizzax (17,3), Surxondaryo (17,3) va Navoiy (19,3) viloyatlarida, yuqori koʻrsatkichlar — Toshkent shahri (36,4), Buxoro (30,1) va Xorazm (26,1) viloyatlarida edi [21]. Bundan tashqari, aksariyat vrachlar shaharlarda ishlayotgan bir vaqtda, qishloqlarda ular soni etishmasdi.

Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoev sogʻliqni saqlash tizimi maʼsul xodimlari bilan 2017 yil 7 yanvarda oʻtkazgan suhbatida chogʻida: “Sogʻliqni saqlash tizimining birlamchi boʻgʻinini yanada rivojlantirish, qishloq vrachlik punktlari uchun mutaxassislar tayyorlash, kasalliklarni oldindan aniqlash uchun profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, tibbiy xizmat madaniyatini koʻtarish dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Bunday markazlar bemorlarni davolash bilan bir qatorda mavjud muammolarni echishda oʻz hissasini qoʻshishi kerak” degandi [22].

QVPlarni qayta joylashtirish va ularning faoliyatini optimallashtirish zaruriyati paydo boʻldi. Ayrim qishloq tibbiy muassasalari oilaviy poliklinikalarga aylashtirilishi va ularning mutaxassislari faoliyatni ragʻbatlantirish, markazdagi yuqori malakali mutaxassislar qishloq aholisiga doimiy tibbiy yordamni hududlarga borib koʻrsatishlari kerak edi.

Izchil amalga oshirilayotgan tadbirlar va Prezidentning 2017 yil 29 martdagi “Oʻzbekiston Respublikasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” qarorining bajarilishi jarayonida 793 qishloq vrachlik punktlari oilaviy poliklinika va 441 ta shoshilinch tez yordam shoxobchalariga aylantirildi [23]. QVPlarning takomillashtirilishi va qishloq oilaviy poliklinikalarining tashkil etilishi aholini markazdagi ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari darajasida sifatli yordam olish imkoniyatiga yaqinlashtirdi.

Xulosa

Koʻrinib turganidek, mustaqillik yillarida qishloq aholisiga koʻrsatilayotgan boshlangʻich tibbiy xizmat asosan qishloq vrachlik punktlari va tuman markaziy kasalxonalarini orqali amalga oshirildi.

Qishloq aholisining aksariyat qismi umumiy amaliyot shifokorlarining xizmatidan ma'mnunligi bois, viloyat markazlaridagi davolash muassasalariga murojaat qilishdan ozod bo'ldilar. Bundan tashqari ularga tibbiyot ilmiy markazlari va chet eldan kelayotgan mutaxassislar malakali yordam bera boshladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Программа развития сельских врачебных пунктов и больниц в сельской местности Республики Узбекистан на 1996-2000 годы и прогноз до 2005 года // www.Lex.uz.
2. Алимов А.В. Реформирование первичной медико-санитарной помощи в Узбекистане: достигнутые успехи и перспективы развития // www.minzdrav.uz.
3. Сектор здравоохранения и реформирование системы финансирования и управления ПМСП. — Ташкент: USAID США, (2005):29.
4. Таксанов А. Всемирный банк финансирует проект "Здоровье-2" в Узбекистане, который охватит 15 млн. граждан // www.CentrAsia.ru. 6 апреля 2005 г.
5. Асадов Д.А. Стратегия реформ систем здравоохранения с позиции Всемирной организации здравоохранения МЖУ. (2009) 3:47.
6. Проект "Здоровье-2" Всемирного банка развития, и реконструкция // www.minzdrav.uz.
7. Ибрагимов, А.Ю., Асадов, Д.А., Менликулов П.Р. Основные направления реформирования здравоохранения в республике Узбекистан За рубежом. 2012. – № 1. – С. 56; Проект "Здоровье-2" Всемирного банка развития, и реконструкция // www.minzdrav.uz.
8. Мавлянова Д., Мухамедьярова Р., Абдурахимова С., Фузайлов Ф., Цой Е. Развитие первичной медико-санитарной помощи в Узбекистане: достижения и проблемы. Аналитический обзор Ташкент: Узбекистан, (2013):119.
9. Алимов А.В. Реформирование первичной медико-санитарной помощи в Узбекистане: достигнутые успехи и перспективы развития // www.minzdrav.uz.
10. Проект "Здоровье-2" Всемирного банка развития, и реконструкция // www.minzdrav.uz.
11. Алимов А.В. Реформирование первичной медико-санитарной помощи в Узбекистане: достигнутые успехи и перспективы развития // www.minzdrav.uz.
12. Расширяются возможности СВП // www.uza.uz.
13. Давлетов, С.Р. Проблема Арала и Приаралья: вчера и сегодня Молодой учёный. (2014) 2:635.
14. Охрана здоровья населения составляет неотъемлемую часть // www.uza.uz. 23 апреля 2010 г.
15. СВП – важное звено системы здравоохранения // www.uza.uz. 28 апреля 2010 г.
16. СВП: повышаются качество и эффективность // www.uza.uz. 15 февраля 2011 г.
17. Праздник медицинских работников // www.uza.uz. Ноябрь 2011 г.
18. С заботой о здоровье народа // www.uza.uz.
19. Республиканская научно-практическая конференция на тему: "Повышение качества медицинской помощи в первичном звене здравоохранения" // www.uza.uz. 28 ноября 2013 г.
20. Статистические данные Министерство здравоохранение Республики Узбекистан на 1 января 2017 г.
21. Развитие первичной медико-санитарной помощи в Узбекистане: достижения и проблемы. (2018) 93:118.
22. Совершенствование медицинской сферы на уровне современных требований служит интересам человека // www.press-service.uz. 8 февраля 2017 г.
23. Поезд "Здоровья" отправился в путь // www.minzdrav.uz. 5 июля 2017 г.

Qabul qilingan sana 20.05.2023